

**KITOB O'QISHNING SHAXS RIVOJLANISHDAGI O'RNI****Oygul Xudayberdiyeva****Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali  
Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedراسي****Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Urgut filiali 1-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20605242>**

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada kitob o'qishning inson rivojlanishidagi o'rni haqida munozara olib boriladi. Mutolaaning inson nutqi, fikirlashi, dunyoqarashiga ta'siri yoritiladi. Shu bilan birga, buyuk bobokalonlarimiz – Abu Ali Ibn Sino va Alisher Navoiy asarlari misolida kitobning inson kamolotidagi o'rni ochib beriladi. Maqola hozirgi yoshlarimizni kitobxonlikka jalb qilish va mutolaaning afzalliklarini tushuntirishga qaratilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** kitob, mutolaa, tafakkur, shaxs rivojlanishi, dunyoqarash, ma'naviyat, nutq madaniyati, Ibn Sino, Alisher Navoiy, komillik.

Insoniyat taraqqiyoti davomida kitob eng zarur bilim manbalaridan biri bo'lib kelgan. Har bir shaxsning rivojlanishi uchun ilm va ma'rifat muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmning asosiy kaliti shubhasiz bu kitobdir. Kitob o'qish insonning dunyoqarashini kengaytiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi va uni komil shaxs sifatida tarbiyalaydi. Buyuk allomalarimiz o'z fikirlarini kitob orqali biz kelajak avlodlarga qoldirganlar. Bugungi kunda internet va turli texnologiyalar jadal rivojlangan bo'lsada, kitob o'qish ahamiyati pasaygani yo'q. Aksincha turli axborotlar tarqalgan bir paytda, kitob o'qish insonni chuqur fikirlashga, tahlil qilishga va to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadigan muhim bir manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shaxs rivojlanishi deganda insonning ma'naviy, aqliy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan kamol topishi tushuniladi. Bu jarayonda kitob mutolaasi muhim rol o'ynaydi. Kitob o'qish insonning bilim doirasini kengaytiradi, tafakkurini rivojlantiradi va hayotga bo'lgan qarashlarini boyitadi. Kitob mutolaa qilgan inson voqealarni to'g'ri tahlil qilish va mustaqil qaror chiqarishga o'rganadi. Har bir asar insonga yangi hayot bag'ishlaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki inson qanaqa asar o'qishidan qat'i nazar unda yangi hayotiy tajribalar, yangi fikrlar, yangi qarashlar paydo bo'ladi. Natijada shaxsning tafakkuri rivojlanadi va dunyoqarashi kengayadi. Shuningdek, ko'p kitob o'qish insonning nutq boyligi va so'zlashish madaniyatini oshiradi. Ko'p mutolaa qilgan inson o'z fikrlarini aniq va ravshan ifoda eta oladi. Bu esa ma'ruza zallarida, sahnalarda, kasbiy faoliyatda hayajonlanmasdan nutq so'zlashga yordam beradi. Buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari inson ma'naviy komillik masalalarini chuqur yoritadi. Asar uch qismdan tashkil topgan bo'lib, unda jamiyatdagi shaxslar, yaxshi va yomon xulq egalari, hamda hayotiy hikmatlar o'z aksini topgan. Bu jihatlar shaxs tarbiyasida kitobning o'rni yuqoriligini ko'rsatadi. Abu Ali Ibn Sino hayoti ham mutolaaning insonni yuksak darajalarga olib chiqishini isbotlaydi. Uning tibbiyotga doir "Al Qonun Fit Tib" asarida kasalliklarning kelib chiqish sabablari va manbalari, diagnostika, muolaja usullari, dorivor o'simliklar va dori darmon xususiyatlari, inson salomatligi uchun jismoniy tarbiyaning ahamiyati kabi tabobatning muhim masalalariga alohida e'tibor berilgan. Uning ko'pgina asarlaridan hozirgi kungacha keng foydalanib kelinmoqda. Bundan tashqari, kitob mutolaa qilish insonda sabr-toqat, diqqat va intizomni shakillantiradi. Muntazam kitob o'qish esa insonni vaqtini to'g'ri taqsimlashga va maqsadlar sari olg'a qadam tashlashga yordam beradi. Bu fazilatlar esa shaxsning muvaffaqiyatli rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv davrda yoshlar orasida kitob o'qishga qiziqishning pasayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab qilib

ijtimoiy tarmoqlar va qisqa axborot manbalarining ko'payganini olsak bo'ladi. Ko'p hollarda yoshlar vaqtini telefon va internetga sarflab, chuqur mutolaaga yetarlicha e'tibor bermayapti. Bu esa ularning tafakkuri yuzaki shakillanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Kitob o'qish nafaqat bilim beradi, balki inson ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: xotirani mustahkamlaydi, stressni kamaytiradi, diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi, tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi. Inson o'zini rivojlantirish uchun har kuni kamida 1 soat mutolaa qilishi, zerikib kitob o'qimasligi uchun o'ziga xohlagan mavzuga doir kitob o'qishi va boshqa tengdoshlari bilan fikr almashishi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, kitob mutolaa qilish nafaqat insonni rivojlantiradi balki uni komil inson qilib tarbiyalaydi. Komil inson-bu har tomonlama yetuk, mukammal inson degani. U nafaqat bilimli, balki, yaxshi xulq-atvorli, ruhiy va ijtimoiy jihatdan ham barkamol bo'ladi. Shu bilan birga ko'p kitob o'qigan inson asar qahramonlari yo'l qo'ygan xatolarni takrorlamaslikga harakat qiladi. Kitob insonni go'zal xulq egasi qiladi ya'ni tafakkurini kengaytiradi, nutqini ravon qiladi. Ajdodlarimiz kitob va ilm orqali dunyo ravnaqiga ulkan hissa qo'shganlar. Demak, biz ham kitobni do'st tutib, o'z kelajagimizni yanada porloq qilishimiz mumkin. Bu albatta, o'z qo'limizda. Kitob-insonning eng sodiq ustozi va ma'naviy yo'l boshchisidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mahbub ul-qulub –Toshkent:Yangi asr avlodi,2021
2. Abu Ali Ibn Sino. Kitob ush-shifo. Ilmiy-falsafiy asar
3. zamonaviy pedagogika va shaxs rivojlanishiga oid ilmiy maqolalar to'plami
4. Guliston-Toshkent: sharq nashriyoti